



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim maktab (maktab-internat)larini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlariga bir hafta muddatda:

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlarini malaka tavsiflari bilan to‘liq tanishtirilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari uchun ilova bilan tasdiqlanayotgan malaka tavsiflaridan ish jarayonida foydalanish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha seminarlar tashkil etish va tushuntirish ishlarini olib borish;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) direktorlari tomonidan xodimlarni ishga qabul qilish va ularni boshqa lavozimga o‘tkazishda mazkur malaka tavsiflariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;

malaka tavsiflariga mos kelmagan xodimlar bilan amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish choralari ko‘rilishini nazorat qilish vazifalar yuklatilsin.

3. Axborot xizmati (D.Sobirova) tasdiqlangan malaka tavsiflarini vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) ushbu buyruqni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarga yetkazsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash haqida" 2025-yil 16-maydagi 159-son buyrug'ining 12-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazirning
birinchi o'rinbosari**



Sh. Karimov

Toshkent sh.,
2026-yil 13 - yanvar,
9-son

**Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari
asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari**

Talablar nomi	Lavozim nomi va unga qo'yiladigan malaka tavsiflari
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari direktori	
Ma'lumot	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va menejerlik sertifikati <i>(ilmiy darajaga ega bo'lgan nomzodlarga afzallik beriladi)</i>
Mehnat staji	Ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilish; davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish ustuvorlik beradi)</i>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari	
Ma'lumot	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi <i>(magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)</i>
Mutaxassislik	Pedagogika yo'nalishi
Mehnat staji	Kamida 4 yildan kam bo'lmagan pedagogik staj.
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi <i>(Word, Excel, Power Point va h.k)</i> , zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi)</i>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	
Ma'lumot	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi (<i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i>)
Mutaxassislik	Pedagogika yo'nalishi
Mehnat staji	Kamida 4 yildan kam bo'lmagan pedagogik staj.
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari o'qituvchisi	
Ma'lumot	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi, bunda xorijiy til yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishlari shart (<i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i>).
Mutaxassislik	a) boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun — boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha kamida o'rta maxsus pedagogik ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha dars berish huquqi bilan kasbiy qayta tayyorlov kursini tugatganligi; b) fan o'qituvchisi uchun — fan yo'nalishiga to'g'ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va fan yo'nalishiga to'g'ri keluvchi dars berish huquqi bilan kasbiy qayta tayyorlov kursini tugatganligi yoxud fan yo'nalishiga (xususiyatiga) to'g'ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va pedagogik faoliyat yuritish huquqi bilan qayta tayyorlov kursini tugatganligi; v) ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar hamda maktab-internatlarning ixtisoslashtirilgan fan o'qituvchisi uchun – kamida birinchi malaka toifasiga ega bo'lishi; Mutaxassislik (<i>oliy pedagogik ma'lumotga egalik afzallik beradi</i>)
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim

	standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi)</i>. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi kamida bitta musiqa cholg'u asbobini chalish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi yoshiga nisbatan Sport vazirligi tomonidan belgilangan jismoniy tayyorgarlik va sport sinovlarini bajara olish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq: qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar; qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar; pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar; psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari stajyor-o'qituvchi	
Ma'lumot	Oliy va tugallanmagan to'liqsiz oliy pedagog yo'nalish (3 va undan yuqori kursda o'qiydigan talabalar)
Mutaxassislik	Pedagogika yo'nalishi
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi <i>(Word, Excel, Power Point va h.k)</i> , zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi)</i>. <i>(2023/2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalariga ishga kirayotgan xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi shart)</i> Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq: qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar; qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar; pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar; psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan

	shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari kasbiy ta'lim ustasi	
Ma'lumot	Oliy bakalavr, tikuvchilik va duradgorlik kasblari bo'yicha oliy ma'lumotli texnologiya o'qituvchisi; O'rta maxsus, "Ishga marhamat" Monomarkazi, kollej va texnikumda tashkil etilgan qisqa muddatli kurs sertifikatiga, hunarmand uyushmasi a'zolik guvohnomasi, axborot texnologiyalariga oid kasblar bo'yicha IT mutaxassislik sertifikatga ega bo'lishi lozim.
Mutaxassislik	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida o'qitilish belgilangan kasblar bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis
Mehnat staji	Mazkur kasb bo'yicha kamida 1 yillik mehnat staji.
Kompyuter savodxonligi	Zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi.
Qo'shimcha talablar	Kasbiy malaka talablar (bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya)ga egalik; Davlat tili hamda maktabda o'qitiladigan ta'lim tilini bilish; Pedagoglarga xos muomala madaniyati va odob-axloqqa ega bo'lishi; Kasbi bo'yicha zamonaviy yangiliklardan xabardorlik; O'rgatadigan kasbi bo'yicha mustaqil mahsulot yarata oladigan kompetensiyaga egalik; Texnika xavfsizlik qoidalaridan to'liq xabardorlik; Internetdan foydalangan holda kasb bo'yicha yangiliklarni topish, tahlil qilish, o'quvchilarga yetkazib berish ko'nikmasiga egalik; Jamoda ishlash ko'nikmasiga egalik; Hissiyotlarni boshqara olish. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq: qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar; qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar; pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar; psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari direktorining Xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari (xo'jalik mudiri)	
Ma'lumot	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi lozim
Mutaxassislik	Mutaxassislik talab etilmaydi (<i>oliy moliya-iqtisod va qurilish sohasidagi ma'lumotga egalik afzallik beradi</i>)

Mehnat staji	Kamida 2 yil
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>). Moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarini tashkillashtirish, bino va qo'shimcha obyektlarning texnik holati va jihozlanganligini muntazam ravishda o'rganib borish; kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida tegishliligicha ko'mir, suyuq yoqilg'i, tabiiy gaz va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va ma'lumotlarni hududiy ta'lim boshqaruvi organlariga taqdim etish hamda qabul qilingan yoqilg'ilarning sifati va saqlanishini ta'minlash; kasbiy odob-axloq qoidalarini, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini bilish; “Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) binosining texnik holatini, uning hududi, xonalar soni va o'lchamlarini, ta'lim muassasasi binosiga qo'yiladigan texnik talablarni; Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari psixolog	
Ma'lumot	kamida bakalavr darajasidagi psixologik yoki oliy ma'lumot va unga qo'shimcha psixologiya yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlov kursini tugatganlik; (<i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i>)
Mutaxassislik	Psixologiya, Pedagogika-psixologiya yo'nalishi
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>).
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari o'qituvchi-logoped	
Ma'lumot	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi (<i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i>)

Mutaxassislik	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli defektolog (logoped) yoki oliy ma'lumot va unga qo'shimcha defektologiya (logopediya) yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlov kursini tugatganligi;
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi.
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>). a) amaldagi umumiy o'rta ta'lim sohasidagi, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni; b) maxsus va yoshlar pedagogikasi hamda psixologiyasini; v) defektologiyaning anatomik-fiziologik va klinik asoslarini; g) o'quvchilarning rivojlanishidagi muammolarini oldini olish va tuzatishning metodlari hamda usullarini, ular bilan ishlashda qo'llaniladigan dasturiy-metodik adabiyotlarni; d) nutqida nuqsoni bor bolalarni aniqlash, hisobga olish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ochilgan logopediya shoxobchalari bilan hamkorlikda ishlash choralari ko'ra bilish qobiliyatga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktabi maxsus pedagog	
Ma'lumot	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi (magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi).
Mutaxassislik	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli defektologiya, logopediya, surdopedagogika, tiflopedagogika yoki oligofrenopedagogika yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoki defektologiya (sohalar bo'yicha) yo'nalishida tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan.
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi.
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), sun'iy intellekt, zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi.
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>); a) amaldagi umumiy o'rta ta'lim sohasidagi, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni; b) maxsus va yosh davrlar pedagogikasi hamda psixologiyasini;

	d) defektologiyani anatomik-fiziologik va klinik asoslarini; e) o'quvchilarning rivojlanishidagi muammolarini oldini olish va korreksion metodlari hamda usullarini, ular bilan ishlashda qo'llaniladigan dasturiy-metodik adabiyotlarni; f) nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan, kar-soqov, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmasiga; g) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun pedagogik-psixologik individual qo'llab-quvvatlash rejasini bajarilishi, fan dasturlarini o'zlashtirishi, rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, ularga turli ko'rinishdagi psixologik yordam berish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi; h) nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid milliy va xalqaro hujjatlardan xabardor bo'lish; i) davriy ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tgan bo'lish (oliy ta'limni tamomlaganiga bir yildan oshmagan bitiruvchilar bundan mustasno); j) bolalarga nisbatan mehribon, sabr-toqatli va mas'uliyatli bo'lish, yuqori darajadagi empatiyaga ega bo'lishi; k) yuqori darajadagi pedagogik odob va muloqot madaniyatiga ega bo'lish; l) stressga chidamli, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi; m) jamoada ishlash va ota-onalar bilan samarali hamkorlik qila olishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.
Umumiy o'rta ta'lim maktabi yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)	
Ma'lumot	O'rta-maxsus yoki Oliy ma'lumotli pedagogika sohasida diplomga ega bo'lishi (magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)
Mutaxassislik	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan ushbu turdagi bolalar bilan ishlash uchun maxsus ta'lim yoki sertifikatga ega bo'lgan, psixologiya, pedagogika yoki maxsus ta'lim sohasida o'rta-maxsus yoki oliy ma'lumotli.
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi.
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (Word, Excel, Power Point va h.k), sun'iy intellekt, zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi.
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; ko'rish, tutqanoq holati va tayanch-harakatida (mustaqil yura olmaydigan) nuqsoni bor o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi; Davlat tilini bilish (rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi); maxsus va yosh davrlar pedagogikasi hamda psixologiyasini bilishi lozim;

	alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga ta'lim jarayonida yordam ko'rsatish; dars davomida o'quvchining xulqi, faolligi va o'zlashtirishini qo'llab-quvvatlash; o'quv materiallarini o'quvchi imkoniyatiga moslashtirib tushuntirish; xavfsizlik qoidalariga rioya etish va o'quvchini kuzatib borish; mehribon, sabr-toqatli va mas'uliyatli bo'lish; yuqori darajadagi empatiya va muloqot madaniyatiga ega bo'lish; stressga chidamli, vaziyatni to'g'ri baholay olish; bolalar, ota-onalar va pedagoglar jamoasi bilan hamkorlikda ishlay olish; inklyuziv ta'lim tamoyillari va bolalar huquqlariga rioya qilish; xizmat majburiyatlari doirasida maxfiylikni saqlash; o'quv qurollari va texnik vositalardan foydalanish; darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchiga ijtimoiy moslashuvda yordam berish; zarur hollarda sog'liq va xavfsizlik bo'yicha birinchi yordam ko'rsatish asoslarini bilishi lozim.
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari kutubxona mudiri, kutubxonachi	
Ma'lumot	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
Mutaxassislik	Mutaxassislik talab etilmaydi
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>).
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari laboranti	
Ma'lumot	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
Mutaxassislik	Mutaxassislik talab etilmaydi
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>).

Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari tarjimon-kotiba	
Ma'lumot	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi (<i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i>)
Mutaxassislik	Mutaxassislik talab etilmaydi
Mehnat staji	Mehnat staji talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>).
Umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)lari kadrlar bo'yicha menejer	
Ma'lumot	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
Mutaxassislik	Pedagog yoki huquq yo'nalishlari ustunlik beradi
Mehnat staji	Talab etilmaydi
Kompyuter savodxonligi	Microsoft Office dasturi (<i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i>), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
Qo'shimcha talablar	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek, ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>). a) davlatimizning xalq ta'limiga va mehnat munosabatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarini; b) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini, jamoada qulay psixologik muhit yaratishni; v) pedagoglarning shaxsiy tarkibi bo'yicha buyruqlarini tayyorlash va ularning belgilangan tartibda saqlanishini; g) faoliyat yo'nalishi bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari, ta'limni boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish usullarini;